

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI BANKLAR
TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH
("HAMKORBANK" ATB MISOLIDA)

Bekchanov Umrbek Xodjinazarovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21549812>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tijorat banklari tomonidan qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mazmuni, amaldagi mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari “Hamkorbank” ATB faoliyati misolida o‘rganilgan.

Tadqiqotda kichik biznesni kreditlash, bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kredit risklarini baholash, imtiyozli moliyalashtirish, raqamli bank xizmatlari va tadbirkorlarga maslahat ko‘rsatish tizimining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanishida uchraydigan yuqori foiz stavkalari, ta‘minot yetishmasligi, kredit olish jarayonining murakkabligi va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi kabi muammolar yoritilgan. Tahlil natijasida kichik biznesni moliyalashtirishda individual yondashuvni kuchaytirish, muqobil kredit baholash tizimlarini joriy etish, masofaviy xizmatlarni rivojlantirish, kredit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish hamda bank va tadbirkor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tijorat banklari, bank krediti, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, “Hamkorbank” ATB, kreditlash mexanizmi, kredit riski, raqamli bank xizmatlari, imtiyozli moliyalashtirish, moliyaviy resurslar, tadbirkorlik faoliyati.

Abstract. This article examines the economic content of support for small businesses and private entrepreneurs by commercial banks, current mechanisms, and areas for their improvement using the example of Hamkorbank JSCB. The study analyzes the importance of lending to small businesses, expanding access to banking services, assessing credit risks, preferential financing, digital banking services, and the system of consulting for entrepreneurs. It also highlights problems encountered by business entities in using financial resources, such as high interest rates, lack of supply, the complexity of the loan process, and the low level of financial literacy. As a result of the analysis, proposals were developed to strengthen the individual approach to financing small businesses, introduce alternative credit assessment systems, develop remote services, diversify credit products, and strengthen long-term cooperation between banks and entrepreneurs.

Keywords: small business, private entrepreneurship, commercial banks, bank credit, financial support, Hamkorbank JSCB, lending mechanism, credit risk, digital banking services, preferential financing, financial resources, entrepreneurial activity.

Kirish: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi, yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiluvchi hamda aholi daromadlarini oshiruvchi muhim iqtisodiy sektor hisoblanadi.

Mazkur sektorning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifati, kredit resurslarining mavjudligi va ulardan foydalanish shartlariga bog'liq. So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilash va bank-moliya tizimini liberallashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining kredit mablag'lariga kirish imkoniyatini kengaytirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish, kredit risklarini samarali boshqarish hamda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada ushbu masalalar "Hamkorbank" ATB faoliyati misolida tahlil qilinib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini banklar tomonidan qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. O'zbekistonlik tadqiqotchi J.R. Xodjayeva kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda bank kreditining o'rnini o'rgangan.

Tadqiqotda bank krediti tadbirkorlarning aylanma mablag'larini to'ldirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va biznes faoliyatini kengaytirishning asosiy tashqi moliyalashtirish manbalaridan biri sifatida baholangan. Muallif kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun kredit mahsulotlarini tadbirkorlarning faoliyat yo'nalishi, pul oqimi va real ehtiyojlariga moslashtirish, bank-mijoz munosabatlarini yaxshilash hamda raqamli kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan. (Xodjayeva, 2025).

J.Y. Otavaliyev "Hamkorbank" ATB faoliyati misolida tijorat banklari kreditlarining kichik biznesni rivojlantirish va aholi bandligini oshirishdagi rolini tahlil qilgan. Tadqiqotda kichik biznesga yo'naltirilgan kredit resurslari yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish va aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Muallif bank kreditlarining samaradorligini faqat ajratilgan mablag' hajmi bilan emas, balki yaratilgan ish o'rinlari, moliyalashtirilgan loyihalarning barqarorligi va kreditlarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi orqali baholashni taklif qilgan. (Otavaliyev, 2025).

M. Maxmudova O'zbekiston bank sektoridagi raqamli transformatsiya jarayonlarini tadqiq etib, mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish, bank mahsulotlarini shaxsiylashtirish va masofaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish banklar raqobatbardoshligining muhim omiliga aylanayotganini asoslagan. Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda ham dolzarb bo'lib, kredit arizalarini masofadan qabul qilish, avtomatlashtirilgan skoring tizimlarini qo'llash va tadbirkorlarning operatsion ma'lumotlari asosida kredit limitlarini belgilash imkonini beradi. (Maxmudova, 2023).

Rossiyalik olimlar N.E. Egorova va E.A. Koroleva kichik biznesni kreditlashning an'anaviy bank modelidan hamkorlikka asoslangan modelga o'tish zaruratini tadqiq qilgan.

An'anaviy modelda bank va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlar asosan kreditni ajratish va qaytarish jarayoni bilan cheklansa, hamkorlik modelida bank kichik biznesning uzoq muddatli moliyaviy sherigi sifatida qatnashadi. Tadqiqotchilar o'zaro ishonch, doimiy axborot almashinuvi, maslahat xizmatlari va biznesning individual xususiyatlarini hisobga olish kredit riskini kamaytirib, moliyalashtirish samaradorligini oshirishini asoslagan. (Egorova and Koroleva, 2020).

E.A. Tarxanova, K.A. Zaxarova, A.V. Tarxanova va E.G. Jeurova Rossiyada kichik va oʻrta biznesni banklar tomonidan kreditlash tendensiyalarini oʻrganib, tashqi iqtisodiy beqarorlik sharoitida banklarning kredit siyosati va risklarni baholash yondashuvlari oʻzgarayotganini koʻrsatgan. Tadqiqotda kichik biznesni kreditlashni rivojlantirish uchun davlat kafolatlari, imtiyozli dasturlar, raqamli kredit platformalari va avtomatlashtirilgan skoring tizimlarini oʻzaro uygʻunlashtirish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, kredit mahsulotlarini biznesning tarmoq va hududiy xususiyatlariga moslashtirish tavsiya qilingan. (Tarkhanova et al., 2023).

Yevropalik tadqiqotchilar X. Wang va uning hammualliflari 19 ta Yevropa mamlakatidagi qariyb 80 mingta kichik va oʻrta korxona hamda 500 dan ortiq bank maʼlumotlarini tahlil qilib, bank bozorida raqobat va bozor kuchining kichik biznesni moliyalashtirishga taʼsirini oʻrgangan.

Natijalar ayrim banklarning yuqori bozor kuchiga ega boʻlishi kichik korxonalarining kredit olish imkoniyatini cheklashi mumkinligini, banklar oʻrtasidagi raqobat esa kredit taklifini kengaytirishini koʻrsatgan. Biroq uzoq muddatli bank-mijoz munosabatlari axborot nomutanosibligini kamaytirishi ham aniqlangan. (Wang et al., 2020).

F. Corredera-Catalán va uning hammualliflari COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda Ispaniya kichik va oʻrta korxonalarining moliyalashtirish cheklovlarini oʻrgangan. Tadqiqotda davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan kafolat jamiyatlari va banklar oʻrtasidagi hamkorlik iqtisodiy inqiroz sharoitida kichik biznesning kredit olish imkoniyatini saqlab qolishga yordam bergani aniqlangan. Mualliflar kredit kafolatlari taʼminoti yetarli boʻlmagan, biroq istiqbolli biznes loyihalarini moliyalashtirishda bank risklarini taqsimlashning samarali vositasi ekanini taʼkidlagan. (Corredera-Catalán et al., 2021).

H. Degryse, K. Matthews va T. Zhao Buyuk Britaniyada banklar va kichik biznes oʻrtasidagi munosabatlarga asoslangan kreditlashda ishonch omilining ahamiyatini tadqiq qilgan.

Ularning xulosalariga koʻra, bank va tadbirkor oʻrtasidagi uzoq muddatli munosabatlar bankka korxonaning moliyaviy hisobotlarida toʻliq aks etmaydigan sifat koʻrsatkichlari haqida maʼlumot olish imkonini beradi. Bunday “yumshoq axborot” kichik biznesning kreditga layoqatlilikini aniqroq baholash, kredit rad etilish ehtimolini kamaytirish va moliyalashtirish shartlarini yaxshilashga xizmat qiladi. (Degryse, Matthews and Zhao, 2021).

Osiyolik olimlar N. Yoshino va F. Taghizadeh-Hesary Osiyo mamlakatlaridagi kichik va oʻrta biznes subyektlarining moliyalashtirish muammolarini oʻrganib, anʼanaviy bank kreditlari uchun talab qilinadigan garov va kredit tarixining yetishmasligi asosiy toʻsiqlar ekanini aniqlagan.

Mualliflar kichik biznesning kreditga layoqatlilikini baholashda soliq toʻlovlari, savdo aylanmasi, kommunal toʻlovlar va elektron operatsiyalar kabi muqobil maʼlumotlardan foydalanishni taklif qilgan. Shuningdek, kredit kafolati tizimlarini rivojlantirish bank risklarini kamaytirib, moliyaviy inklyuziyani kengaytirishi qayd etilgan. (Yoshino and Taghizadeh-Hesary, 2019).

G. Cornelli va uning hammualliflari Osiyoda kichik biznesni moliyalashtirishda fintech kreditlash, katta maʼlumotlar va raqamli platformalarning oʻrnini tadqiq qilgan. Tadqiqotchilar raqamli kreditlash texnologiyalari anʼanaviy kredit tarixiga ega boʻlmagan tadbirkorlarning tranzaksiya maʼlumotlarini tahlil qilish orqali kredit qarorlarini tezlashtirishini koʻrsatgan.

Shu bilan birga, fintech kreditlashni rivojlantirishda ma'lumotlar xavfsizligi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va banklar bilan fintech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni tartibga solish muhimligi ta'kidlangan. (Cornelli et al., 2019).

N.A. Jimi, P. Nikolov, M.A. Malek va S. Kumbhakar Bangladeshdagi mikrofirmalar misolida kredit olish imkoniyatining tadbirkorlik samaradorligiga ta'sirini empirik baholagan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kredit resurslaridan foydalanish ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligini oshirgan, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilgan xo'jaliklarda kreditning iqtisodiy samarasi yuqori bo'lgan. Ushbu natijalar bank kreditlari faqat moliyaviy ehtiyojni qondirish emas, balki kichik biznesning texnologik yangilanishini rag'batlantirish vositasi ekanini ko'rsatadi. (Jimi et al., 2020).

AQSh va xalqaro moliya institutlari tadqiqotchilari A. Fouejieu, A. Ndoeye va T. Sydorenko turli mamlakatlar ma'lumotlari asosida kichik va o'rta biznesning moliyaviy resurslardan foydalanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilgan. Ular iqtisodiy va institutsional barqarorlik, banklar o'rtasidagi raqobat, kredit axboroti infratuzilmasi, shartnomalarning huquqiy ijrosi va moliyaviy nazorat sifati kichik biznesning kredit olish imkoniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Tadqiqot natijalari kreditlashni takomillashtirish faqat bank mahsulotlarini ko'paytirish bilan emas, balki butun institutsional muhitni yaxshilash bilan bog'liqligini ko'rsatadi. (Fouejieu, Ndoeye and Sydorenko, 2020).

K. El-Awady AQShdagi kichik biznes subyektlarining kredit riskini baholashda yirik korxonalar uchun ishlab chiqilgan kredit modellarini qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilgan.

Muallif kichik biznes bo'yicha ochiq moliyaviy ma'lumotlarning kamligi va kredit tahlilchilarining cheklanganligi an'anaviy baholash usullarining samaradorligini pasaytirishini qayd etgan. Tadqiqotda sun'iy intellekt, chuqur o'rganish hamda muqobil ma'lumotlardan foydalanish kichik biznes uchun tezkor va individual kredit reytinglarini shakllantirish imkonini berishi ko'rsatilgan. (El-Awady, 2021).

Oxirgi yillardagi tadqiqotlarda kichik biznesni banklar tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari sifatida kredit mahsulotlarini individuallashtirish, garov talablarini maqbullashtirish, davlat kafolatlari va imtiyozli dasturlardan foydalanish, bank-mijoz munosabatlarini uzoq muddatli sheriklik asosida rivojlantirish, raqamli kreditlash va muqobil skoring tizimlarini joriy etish ko'rsatilgan. Biroq "Hamkorbank" ATB misolida mazkur mexanizmlarning o'zaro bog'liq holdagi samaradorligi, kreditlarning hududiy bandlik va kichik biznesning moliyaviy barqarorligiga ta'siri yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Shu sababli mazkur masala alohida tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tijorat banklari tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini baholash uchun tizimli, qiyosiy va kompleks yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida "Hamkorbank" ATBning kichik biznes subyektlariga ko'rsatayotgan kredit, hisob-kitob, maslahat va raqamli bank xizmatlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa bank tomonidan tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar, kreditlash shartlari, kredit risklarini boshqarish usullari va qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish

imkoniyatlaridan iborat bo'ldi. Tadqiqotning nazariy asosini kichik biznesni moliyalashtirish, bank kreditlash tizimi, moliyaviy inklyuziya va bank-mijoz munosabatlariga oid ilmiy konsepsiyalar tashkil etdi.

Tahlil jarayonida statistik guruhlash, dinamik qatorlar, taqqoslash, umumlashtirish, koeffitsiyentlar usuli va moliyaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. "Hamkorbank" ATBning kichik biznesga ajratilgan kreditlari hajmi, kredit portfelining tarkibi, kreditlarning tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishi, muammoli kreditlar ulushi, mijozlar soni hamda raqamli xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari o'rganildi. Bank faoliyatiga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy statistika qo'mitasi, "Hamkorbank" ATBning yillik hisobotlari va ochiq axborot manbalari asosida shakllantirildi. Ko'rsatkichlarning yillar davomida o'zgarishi qiyosiy tahlil qilinib, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi asosiy tendensiyalar va mavjud muammolar aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili, bank amaliyotini o'rganish va mantiqiy xulosalash usullari o'zaro uyg'unlashtirildi. Kichik biznes subyektlarining kredit olish jarayonida duch keladigan garov ta'minoti, foiz stavkalari, hujjatlarni rasmiylashtirish, kredit tarixining yetarli emasligi va moliyaviy savodxonlik bilan bog'liq muammolar sabab-oqibat jihatidan baholandi. Shuningdek, raqamli skoring, muqobil ma'lumotlarga asoslangan kredit baholash, davlat kafolatlari, individual kredit mahsulotlari va masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida "Hamkorbank" ATBda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini banklar tomonidan qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholashda tijorat bankining aktivlari, kredit portfeli, kapital bazasi, sof foydasi, kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi hamda kichik va o'rta biznesga yo'naltirilgan mablag'lar dinamikasi muhim ahamiyatga ega. "Hamkorbank" ATB faoliyatining 2019–2024-yillardagi rasmiy moliyaviy ko'rsatkichlari bankning kreditlash salohiyati muntazam kengayganini ko'rsatadi. Bankning 2025-yil uchun moliyaviy hisoboti rasmiy veb-saytda e'lon qilingan bo'lsa-da, mazkur tahlilda 2025-yil ko'rsatkichlari 2019–2024-yillardagi dinamik tendensiyalar asosida hisoblangan analitik baho sifatida keltirildi. Shu sababli 2025-yilga tegishli ma'lumotlar rasmiy yakuniy ko'rsatkich sifatida emas, balki ilmiy prognoz sifatida talqin qilinishi lozim. "Hamkorbank" ATB rasmiy moliyaviy hisobotlar sahifasida 2019–2025-yillar uchun hisobotlar mavjudligi ko'rsatilgan.

1-jadval

"Hamkorbank" ATBning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi, 2019–2025-yillar

Yillar	Jami aktivlar, trln so'm	Mijozlarga berilgan sof kreditlar, trln so'm	Sof foйда, trln so'm	Bank kapitali, trln so'm	Kredit portfelining aktivlardagi ulushi, foiz
2019	8,823	6,032	0,326	1,196	68,4
2020	10,287	7,274	0,383	1,578	70,7
2021	12,494	9,497	0,500	2,078	76,0

2022	16,915	11,451	0,759	2,837	67,7
2023	21,153	15,930	1,214	4,056	75,3
2024	28,940	19,264	1,505	5,541	66,6
2025	35,500	24,000	1,850	6,800	67,6

Manba: “Hamkorbank” ATBning 2019–2025-yillardagi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma’lumotlariga ko’ra, bank aktivlari 2019-yildagi 8,823 trln so’mdan 2024-yilda 28,940 trln so’mgacha yetgan. Natijada olti yillik davrda aktivlar hajmi qariyb 3,3 baravarga yoki 20,117 trln so’mgacha oshgan. Bankning 2019-yilgi rasmiy hisobotida jami aktivlar 8,823 trln so’m, mijozlarga berilgan kreditlar esa 6,032 trln so’m miqdorida qayd etilgan. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi bilan bog’liq iqtisodiy cheklavlarga qaramay, aktivlar 10,287 trln so’mgacha, kredit portfeli esa 7,274 trln so’mgacha yetgan. Mazkur holat bank tomonidan mijozlarning aylanma mablag’larga bo’lgan ehtiyojini moliyalashtirish, mavjud kreditlarni restrukturalashtirish va biznes faoliyatining uzluksizligini ta’minlash choralari ko’rilganini anglatadi.

2021-yilda bank aktivlarining 12,494 trln so’mgacha, mijozlarga berilgan sof kreditlarning esa 9,497 trln so’mgacha yetishi kreditlash faoliyatining sezilarli faollashganini ko’rsatadi. Shu yili kredit portfelinin aktivlardagi ulushi 76 foizni tashkil etib, tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori ko’rsatkichlardan biri bo’lgan. Bankning 2021-yilgi hisobotida 2020-yil aktivlari 10,287 trln so’m, 2021-yil aktivlari 12,494 trln so’m, kreditlar esa mos ravishda 7,274 trln va 9,497 trln so’m etib ko’rsatilgan. Bunday o’sish bank resurslarining katta qismi iqtisodiyotning real sektoriga, jumladan, kichik biznes, individual tadbirkorlik, savdo, xizmat ko’rsatish va ishlab chiqarish loyihalariga yo’naltirilganini bildiradi. 2022-yilda bank aktivlari 16,915 trln so’mgacha yetib, 2021-yilga nisbatan 35,4 foizga oshgan. Mijozlarga berilgan sof kreditlar 11,451 trln so’mni tashkil qilib, bir yil davomida 20,6 foizga ko’paygan. Bankning yalpi kredit portfeli 11,605 trln so’mni, kredit yo’qotishlari uchun shakllantirilgan zaxira 154,6 mlrd so’mni tashkil etgan. Kredit portfeli o’sishining aktivlar o’sishidan past bo’lishi bank tomonidan likvid aktivlar, qimmatli qog’ozlar va banklararo operatsiyalar hajmi ham oshirilganini ko’rsatadi. Bunday diversifikatsiya bankning likvidlik holatini yaxshilash bilan birga, kichik biznesni kreditlash uchun barqaror moliyaviy baza yaratishga xizmat qiladi.

2023-yilda kreditlash faolligi keskin oshib, mijozlarga berilgan sof kreditlar 15,930 trln so’mgacha yetgan. Ushbu ko’rsatkich 2022-yilga nisbatan 39,1 foizga yuqori bo’lib, tahlil davridagi eng katta yillik o’sishni ifodalaydi. Bank aktivlari 21,153 trln so’mni, kapitali 4,056 trln so’mni, sof foydasi esa 1,214 trln so’mni tashkil qilgan. Rasmiy hisobotda 2023-yil kreditlarining yalpi qiymati 16,100 trln so’m, kredit yo’qotishlari zaxirasi esa 169,9 mlrd so’m miqdorida ko’rsatilgan.

Ushbu natijalar kapital bazasining mustahkamlanishi bankka kichik biznes loyihalarini moliyalashtirish hajmini oshirish, kredit muddatlarini uzaytirish va yangi kredit mahsulotlarini joriy qilish imkonini berganini anglatadi. 2024-yilda bank aktivlari 28,940 trln so’mgacha yetib, 2023-yilga nisbatan 36,8 foizga oshgan. Mijozlarga berilgan sof kreditlar 19,264 trln so’mni, kapital 5,541 trln so’mni va sof foyda 1,505 trln so’mni tashkil etgan.

Aktivlarning kredit portfeliga nisbatan tezroq o'sishi natijasida kreditlarning jami aktivlardagi ulushi 66,6 foizgacha pasaygan. Mazkur pasayish kreditlash faoliyatining qisqarganini emas, balki bankning boshqa likvid va daromad keltiruvchi aktivlari, xususan, pul mablag'lari hamda qarz qimmatli qog'ozlariga investitsiyalari sezilarli oshganini anglatadi.

Kredit portfelining tarkibiy tahlili bankning kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdagi rolini yanada aniqroq namoyon etadi. 2024-yilda kichik va o'rta biznes segmentiga ajratilgan kreditlarning sof qiymati 5,090 trln so'mni, mikrosegment kreditlari esa 1,594 trln so'mni tashkil qilgan. Natijada ushbu ikki segmentning umumiy kreditlari 6,684 trln so'mga yetgan. 2023-yilda tegishli ko'rsatkich 5,290 trln so'm bo'lgan. Demak, bir yil davomida kichik, o'rta va mikro biznes segmentlariga berilgan kreditlar qariyb 1,394 trln so'mga yoki 26,3 foizga oshgan. 2024-yilda bankning yalpi kichik va o'rta biznes kreditlari 5,115 trln so'mni, mikrosegment kreditlari 1,603 trln so'mni tashkil etgan. Kichik va o'rta biznes kreditlari bo'yicha shakllantirilgan zaxira 25,2 mlrd so'm yoki ushbu segment yalpi kreditlarining taxminan 0,49 foiziga teng bo'lgan.

Mikrosegmentda zaxira 9,0 mlrd so'm yoki 0,56 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar ushbu segmentlarda kredit yo'qotishlari zaxirasining nisbatan past darajada ekanini ko'rsatadi. Biroq zaxiraning pastligi kredit risklari butunlay mavjud emasligini anglatmaydi.

Kichik biznesning pul oqimlari tashqi bozor o'zgarishlari, mavsumiylik, valyuta kursi, energiya xarajatlari va talab tebranishlariga sezgir bo'lganligi sababli kredit monitoringini muntazam takomillashtirish talab etiladi.

Bank faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda mutlaq ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ularning o'sish sur'atlari, aktivlar rentabelligi va kredit portfelining aktivlardagi ulushini tahlil qilish zarur. Ushbu ko'rsatkichlar bank tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslarning qanchalik samarali joylashtirilganini, foyda yaratish imkoniyatini va kreditlash siyosatining faollik darajasini ifodalaydi.

2-jadval

“Hamkorbank” ATB moliyaviy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari va samaradorlik darajasi, 2019–2025-yillar

Yillar	Aktivlarning yillik o'sishi, foiz	Kredit portfelinin g yillik o'sishi, foiz	Sof foydaning yillik o'sishi, foiz	Aktivlar rentabellig, foiz	Kreditlar/ aktivlar, foiz	Kapital/aktiva, foiz
2019	–	–	–	3,69	68,4	13,6
2020	16,6	20,6	17,5	3,72	70,7	15,3
2021	21,5	30,6	30,6	4,00	76,0	16,6
2022	35,4	20,6	51,7	4,49	67,7	16,8
2023	25,1	39,1	59,9	5,74	75,3	19,2
2024	36,8	20,9	23,9	5,20	66,6	19,1
2025	22,7	24,6	22,9	5,21	67,6	19,2

Manba: Bankning rasmiy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ikkinchi jadval ma'lumotlari bank faoliyatining nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham yaxshilanganini ko'rsatadi. 2019–2024-yillarda aktivlar rentabelligi shartli hisobda 3,69 foizdan 5,20 foizgacha oshgan. Mazkur ko'rsatkich sof foydaning yil oxiridagi jami aktivlarga nisbati orqali hisoblangan bo'lib, o'rtacha yillik aktivlar asosida hisoblanadigan klassik ROA ko'rsatkichidan farq qiladi. Shunga qaramay, u tahlil davrida bank aktivlarining daromad yaratish imkoniyati ortganini umumiy tarzda ifodalaydi. Sof foyda 2019-yildagi 326 mlrd so'mdan 2024-yilda 1,505 trln so'mga ko'payib, qariyb 4,6 baravarga oshgan. 2019-yilda bankning sof foydasi 325,996 mlrd so'mni, 2020-yilda 383,003 mlrd so'mni tashkil qilgan. 2021-yilda sof foyda 500,272 mlrd so'mga, 2022-yilda 759,134 mlrd so'mga yetgan. Sof foydaning o'sishi bankning kelgusida kapitalini ko'paytirish, yangi texnologiyalarga investitsiya kiritish va kichik biznesni moliyalashtirish uchun ichki resurslarni shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Kapitalning aktivlardagi ulushi 2019-yildagi 13,6 foizdan 2024-yilda 19,1 foizgacha oshgan. Kapital yetarliligining mustahkamlanishi bankning kredit risklarini qoplash imkoniyatini oshiradi hamda kichik biznes loyihalariga uzoq muddatli kreditlar ajratish uchun qo'shimcha salohiyat yaratadi. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda kapitalning 4 trln so'mdan 5,5 trln so'mgacha ko'payishi kreditlash hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi bilan bog'liq risklarni muvozanatlashtirishga xizmat qilgan.

Tahlil davrida kredit portfelining aktivlardagi ulushi 66,6–76,0 foiz oralig'ida shakllangan.

Mazkur ko'rsatkich bank faoliyatida kredit operatsiyalarining yetakchi o'rin tutishini bildiradi. Shu bilan birga, kreditlar ulushining haddan tashqari oshishi likvidlik riskini kuchaytirishi, juda past bo'lishi esa bank resurslarining real iqtisodiyotga yetarlicha yo'naltirilmayotganini anglatishi mumkin. "Hamkorbank" ATBda ushbu ko'rsatkichning o'zgaruvchanligi bank tomonidan kreditlash, likvidlikni saqlash va investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish o'rtasida muvozanat shakllantirilayotganini ko'rsatadi. Bank kreditlarining tarmoq tarkibi kichik biznesni qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholashda alohida ahamiyatga ega. 2022-yilda jismoniy shaxslar va individual tadbirkorlarga to'g'ri keluvchi kreditlar 5,087 trln so'mni, ishlab chiqarish sohasidagi kreditlar 2,527 trln so'mni, savdo va xizmatlar sohasi kreditlari 2,407 trln so'mni tashkil etgan.

Transportga 800,4 mlrd so'm, qurilishga 413,6 mlrd so'm va qishloq xo'jaligiga 191,1 mlrd so'm yo'naltirilgan. Ushbu tarkib bank kredit portfelida tadbirkorlik faoliyati, ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishlari yuqori ulushga ega ekanini ko'rsatadi.

Savdo va xizmat ko'rsatish loyihalarini kreditlash qisqa muddatda yuqori pul aylanmasi va tezkor daromad yaratishi mumkin. Biroq uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, logistika, eksport va raqamli xizmatlar sohalariga kreditlarni ko'paytirish maqsadga muvofiq. Chunki ushbu yo'nalishlar yangi ish o'rinlari yaratish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish va eksport tushumlarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Tahlil natijalari "Hamkorbank" ATB kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda kredit resurslarini muntazam oshirib borayotganini ko'rsatadi. Biroq moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini faqat ajratilgan kreditlar hajmi bilan baholash yetarli emas.

Kredit hisobiga yaratilgan ish o‘rinlari, ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati, eksport hajmi, soliq tushumlari, biznesning yashab qolish darajasi va kreditning o‘z vaqtida qaytarilishi kabi natijaviy ko‘rsatkichlar ham hisobga olinishi kerak. Shu sababli bankda kichik biznes kreditlari bo‘yicha “moliyaviy natija — bandlik — ishlab chiqarish — eksport — kredit intizomi” ko‘rsatkichlarini birlashtiradigan monitoring tizimini joriy qilish zarur.

Kichik biznesni moliyalashtirishdagi asosiy muammolardan biri tadbirkorlarda yetarli garov mulkining mavjud emasligidir. An‘anaviy kreditlash modelida garov qiymatiga yuqori talab qo‘yilishi iqtisodiy jihatdan istiqbolli, biroq moddiy aktivlari cheklangan yangi bizneslarning moliyalashtirilmay qolishiga sabab bo‘ladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun bank kredit qarorlarini faqat garov qiymatiga emas, balki korxonaning pul oqimlari, bank hisobvarag‘idagi aylanmasi, soliq to‘lovlari, elektron hisobvara-q-fakturalari, savdo operatsiyalari va biznes egasining kredit tarixiga asoslangan holda qabul qilishi lozim. Raqamli skoring tizimining rivojlantirilishi kichik biznes kreditlarini ko‘rib chiqish muddatini qisqartirish imkonini beradi.

Tadbirkorning tranzaksiya tarixi, hisobvara-qdagi tushumlari, soliq ma‘lumotlari va shartnomalari bank axborot tizimlari orqali avtomatik tahlil qilinsa, kredit arizalarini baholash jarayoni tezlashadi. Natijada operatsion xarajatlar kamayadi, inson omili bilan bog‘liq subyektiv qarorlar cheklanadi va hududlardagi tadbirkorlarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi.

Kichik biznes subyektlariga bir xil standart kredit mahsulotlarini taklif qilishdan mijozning faoliyat xususiyatiga moslashtirilgan yondashuvga o‘tish zarur. Savdo korxonalariga qisqa muddatli aylanma mablag‘ krediti, ishlab chiqarish korxonalariga uzoq muddatli investitsiya krediti, qishloq xo‘jaligi subyektlariga mavsumiy to‘lov jadvali, eksportyorlarga valyuta tushumiga mos kredit va kafolat mahsulotlarini taklif qilish kreditlarning qaytuvchanligini oshiradi. Kredit bo‘yicha asosiy qarzni to‘lash jadvalini biznesning real pul oqimiga moslashtirish ham qarzdorlik xavfini kamaytiradi.

Bankning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashdagi faoliyatini takomillashtirish uchun kreditdan tashqari xizmatlarni ham rivojlantirish muhim. Hisob-kitob xizmatlari, ekvayring, internet-banking, valyuta operatsiyalari, akkreditiv, bank kafolatlari, faktoring va lizing mahsulotlarining bir paketda taqdim qilinishi tadbirkorning bank bilan uzoq muddatli hamkorligini mustahkamlaydi. Bankning rasmiy ma‘lumotlarida biznes mijozlariga kredit, hisobvara-q, internet-ekvayring va savdo ekvayringi xizmatlari taklif qilinishi ko‘rsatilgan. Amalga oshirilgan statistik tahlil “Hamkorbank” ATBda 2019–2024-yillar davomida aktivlar, kredit portfeli, kapital va sof foydaning barqaror o‘sishi kuzatilganini ko‘rsatdi. Kichik, o‘rta va mikro biznes segmentlariga ajratilgan kreditlarning 2024-yilda 6,684 trln so‘mga yetgani bank faoliyatida tadbirkorlikni moliyalashtirish muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi samaradorlikni oshirish uchun muqobil skoring tizimlarini joriy etish, garovga bog‘liqlikni kamaytirish, davlat kafolatlari va sug‘urta mexanizmlaridan kengroq foydalanish, kredit mahsulotlarini tarmoq xususiyatlariga moslashtirish hamda kreditlarning iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini baholash tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Muhokama: O'tkazilgan tahlil natijalari "Hamkorbank" ATBning 2019–2025-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Bank aktivlari, kredit portfeli, kapital va sof foydaning izchil o'sishi tadbirkorlik subyektlariga ko'proq moliyaviy resurslar yo'naltirish uchun mustahkam baza shakllanganini anglatadi. Ayniqsa, kichik, o'rta va mikro biznes segmentlariga ajratilgan kreditlar hajmining ortishi bankning iqtisodiyot real sektorini moliyalashtirishdagi rolini kuchaytirgan. Shu bilan birga, kreditlash samaradorligini faqat ajratilgan mablag'lar miqdori orqali baholash yetarli emas. Kredit hisobiga yaratilgan ish o'rinlari, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, eksport tushumlari, soliq to'lovlari, bizneslarning faoliyatini davom ettirish darajasi va kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi kabi natijaviy ko'rsatkichlarni ham muntazam monitoring qilish zarur. Bu yondashuv bank kreditlarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari kichik biznesni banklar tomonidan qo'llab-quvvatlashda garov ta'minotiga haddan tashqari bog'liqlik, kredit olish jarayonining murakkabligi, foiz xarajatlarning yuqoriligi va mijozlar to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlarning yetarli emasligi asosiy muammolar bo'lib qolayotganini ko'rsatdi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun "Hamkorbank" ATBda pul oqimlariga asoslangan kreditlash, muqobil ma'lumotlardan foydalanadigan raqamli skoring, kredit kafolatlari, faktoring, lizing va moslashtirilgan kredit mahsulotlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, bank va tadbirkor o'rtasidagi munosabatlarni oddiy kreditor-qarzdor modelidan uzoq muddatli moliyaviy sheriklik modeliga o'tkazish lozim. Bunda bank tomonidan maslahat, biznes-reja tuzish, pul oqimlarini boshqarish, eksport operatsiyalari va raqamli savdo kanallaridan foydalanish bo'yicha qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshiradi hamda kredit risklarini kamaytiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini banklar tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. "Hamkorbank" ATB misolida olib borilgan tahlil bankning aktivlari, kredit portfeli, kapitali va foydasi o'sib borayotgani kichik biznesni moliyalashtirish salohiyatini kuchaytirganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, kreditlash samaradorligini oshirish uchun garovga asoslangan an'anaviy yondashuvni bosqichma-bosqich pul oqimlari va muqobil ma'lumotlarga tayanuvchi raqamli skoring tizimi bilan to'ldirish, kredit mahsulotlarini tarmoq va mavsumiy xususiyatlarga moslashtirish, davlat kafolatlari, faktoring, lizing hamda maslahat xizmatlaridan keng foydalanish zarur. Shuningdek, ajratilgan kreditlarning natijadorligini yaratilgan ish o'rinlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport tushumlari, soliq to'lovlari va kredit intizomi ko'rsatkichlari asosida monitoring qilish bank va tadbirkor o'rtasidagi uzoq muddatli moliyaviy sheriklikni mustahkamlab, kredit risklarini kamaytiradi hamda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tadjibaeva, D. (2019) 'Small and Medium-Sized Enterprise Finance in Uzbekistan: Challenges and Opportunities', ADBI Working Paper Series, No. 997, pp. 1–44. Tokyo: Asian Development Bank Institute.
2. Gaybullaev, O. and Oliński, M. (2020) 'Opportunities and Challenges Faced by Small and Medium Enterprises in Uzbekistan', Olsztyn Economic Journal, 15(4), pp. 285–299. doi: 10.31648/oj.6852.
3. Ayupov, R.H. and Baltabayeva, G.R. (2018) Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yo'nalishlari. Toshkent: TMI.
4. Egorova, N.E. and Koroleva, E.A. (2020) 'Kreditovanie subyektov rossiyskogo malogo biznesa: transformatsiya traditsionnoy bankovskoy modeli v partnerskuyu', Ekonomicheskii analiz: teoriya i praktika, 19(8), pp. 1422–1440.
5. Solodilov, D.G. (2021) 'Mekhanizmy razvitiya kreditnykh otnosheniy kommercheskikh bankov s subyektami malogo i srednego predprinimatelstva', Finansovaya ekonomika, 2021(4), pp. 117–121.
6. Tarkhanova, E.A., Zakharova, K.A., Tarkhanova, A.V. and Zheurova, E.G. (2023) 'Bankovskoe kreditovanie subyektov malogo i srednego biznesa v Rossii: analiz klyuchevykh trendov i prognozyne stsennarii razvitiya', Ekonomika, predprinimatelstvo i pravo, 13(11), pp. 4871–4892.
7. Yoshino, N. and Taghizadeh-Hesary, F. (2018) 'The Role of SMEs in Asia and Their Difficulties in Accessing Finance', ADBI Working Paper Series, No. 911, pp. 1–22. Tokyo: Asian Development Bank Institute.
8. Cornelli, G., Frost, J., Gambacorta, L., Rau, P.R., Wardrop, R. and Ziegler, T. (2019) 'SME Finance in Asia: Recent Innovations in Fintech Credit, Trade Finance, and Beyond', ADBI Working Paper Series, No. 1027. Tokyo: Asian Development Bank Institute.
9. Huang, Y., Zhang, L., Li, Z., Qiu, H., Sun, T. and Wang, X. (2020) 'Fintech Credit Risk Assessment for SMEs: Evidence from China', IMF Working Paper, No. 2020/193. Washington, DC: International Monetary Fund. doi: 10.5089/9781513557618.001.
10. Wang, X., Han, L. and Huang, X. (2020) 'Bank Market Power and SME Finance: Firm–Bank Evidence from European Countries', Journal of International Financial Markets, Institutions and Money, 64, Article 101162. doi: 10.1016/j.intfin.2019.101162.
11. Beatriz, M., Coffinet, J. and Nicolas, T. (2022) 'Relationship Lending and SMEs' Funding Costs over the Cycle: Why Diversification of Borrowing Matters', Journal of Banking & Finance, 138, Article 105471. doi: 10.1016/j.jbankfin.2018.12.007.
12. Fouejieu, A., Ndoye, A. and Sydorenko, T. (2020) 'Unlocking Access to Finance for SMEs: A Cross-Country Analysis', IMF Working Paper, No. 2020/055. Washington, DC: International Monetary Fund. doi: 10.5089/9781513536156.001.
13. Ghassibe, M., Appendino, M. and Mahmoudi, S.E. (2019) 'SME Financial Inclusion for Sustained Growth in the Middle East and Central Asia', IMF Working Paper, No. 2019/209. Washington, DC: International Monetary Fund. doi: 10.5089/9781513509112.001.
14. <https://hamkorbank.uz/>